

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATINI SHAKILLANTRISHGA OID QARASHLAR

Eshpolotova Charos Uktamovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika yo'nalishi 1-kurs talabasi

Email:charoseshpilotova93 gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq uyg'onish davri mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, ustoz va murabbiylik masalalariga oid qarashlari tahlil qilinadi. Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy kabi allomalarning pedagogik fikrlari zamonaviy o'qituvchilik faoliyati bilan bog'lab yoritiladi. Shuningdek, jadid ma'rifatparvarlari — Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat va Behbudiylarning pedagogik meroslari orqali kasbiy mahorat, axloqiy tarbiya va ustoz-shogird munosabatlari o'rtasidagi uzviylik ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar. Mutafakkirlari, pedagogik mahorat, ustoz-shogird, ma'naviy tarbiya, jadidchilik, ta'lim-tarbiya, kasbiy faoliyat.

ВЗГЛЯДЫ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО- ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОКА

Аннотация. В статье анализируются взгляды мыслителей эпохи Восточного Возрождения на образование, наставничество и воспитание. Педагогические идеи таких учёных, как Фаруки, Беруни, Ибн Сина, Джамии и Навои, освещаются в контексте современной педагогической деятельности. Также в педагогическом наследии новых просветителей – Абдуллы Авлони, Исхахона Ибрата и Бехбуди – показана связь профессионального мастерства, нравственного воспитания и отношений учителя и ученика.

Ключевые слова: Мыслители, педагогическое мастерство, учитель-ученик, духовное воспитание, джадидизм, образование, профессиональная деятельность.

VIEWS ON THE FORMATION OF PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL ACTIVITY OF EASTERN THINKERS.

Annotation. *This article analyzes the views of thinkers of the Eastern Renaissance on education, mentoring, and mentoring. The pedagogical ideas of such scholars as Farooqi, Beruni, Ibn Sina, Jami, and Navoi are highlighted in connection with modern teaching activities. Also, the pedagogical heritage of the new enlighteners - Abdulla Avloni, Ishakhon Ibrat, and Behbudi - shows the connection between professional skills, moral education, and teacher-student relations.*

Keywords: *Thinkers, pedagogical skills, teacher-student, spiritual education, Jadidism, education, professional activity.*

KIRISH. Sharq uygʻonish davri insoniyat tafakkuri tarixida buyuk oʻrin tutadi. Bu davrda yashagan mutafakkirlar ilm, fan, adabiyot va ayniqsa, taʼlim-tarbiya masalalarida chuqur falsafiy qarashlar ilgari surganlar. Ularning fikrlari bugungi oʻqituvchilik kasbining mohiyati, maqsadi va vazifalarini belgilab beruvchi bebaho manba hisoblanadi. Har bir ustoz, zamonaviy pedagog, bu allomalarning asarlarida oʻz faoliyati uchun ibrat va ruhiy tayanch topa oladi.

Forobiy va pedagogik mahurat.

Abu Nasr Forobiy oʻzining “Baxt saodatga erishuv” va “Fozil odamlar shahri” asarlarida taʼlim-tarbiya jarayonining mohiyatini chuqur tahlil etgan. U oʻqituvchining mahoratini insonning 12 fazilati bilan bogʻlab, ustozning halolligi, adolatparvarligi va qatʼiyligini eng muhim xislatlar deb biladi. Forobiyning “oʻqituvchi na haddan tashqari qattiqqoʻl, na haddan ziyod yumshoq boʻlishi kerak” degan fikri hozirgi pedagogikada ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan.

Bugungi kunda ham oʻqituvchi shaxsining nutqi, kiyinish madaniyati, muomala odobi va oʻquvchilarga boʻlgan munosabati — bularning barchasi Forobiy aytgan “komil inson” qiyofasining zamonaviy ifodasidir.

Beruniy va oʻqitish psixologiyasi.

Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida o'qitish jarayonida o'quvchini zeriktirmaslik, mavzularni xilma-xil shaklda yoritish zarurligini ta'kidlagan. U "O'quvchi bir mavzudan boshqasiga o'tsa, u xuddi bog'larda sayr qilgandek bo'ladi" deb yozadi. Bu fikr o'quv jarayonida interfaol metodlardan foydalanish g'oyasiga juda yaqin.

Masalan, bugungi o'qituvchi darsni faqat ma'ruza bilan emas, balki munozara, loyiha va o'yinlar orqali tashkil etadi. Beruniy ilgari surgan "zeriktirmaslik" tamoyili o'qitish psixologiyasining muhim asoslaridan biriga aylangan.

Ibn Sino va ustoz shaxsiga qo'yilgan talablar

Abu Ali ibn Sino o'zining "Tadbiri manozil" asarida o'qituvchi shaxsiga yuqori talablar qo'ygan. Unga ko'ra, ustoz sog'lom, pokiza, adolatli va notiq bo'lishi lozim. U "Bola tarbiyasi sog'lom muhit va so'zning kuchi orqali amalga oshadi" deb ta'kidlaydi. Bugungi kun ta'lim tizimida o'qituvchining so'z madaniyati, nutq etikasi ham xuddi shunday qadrlanadi.

Ibn Sino o'z davridayoq o'qituvchining ovoz gigiyenasiga e'tibor qaratgan — bu, zamonaviy pedagogik psixologiyada kasbiy sog'lom turmush tarzi sifatida qayta tiklangan qadriyatdir.

Navoiy, Jomiy va ustoz-shogird odobi.

Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy ijodida ustoz shaxsi yuksak darajada ulug'langan. Navoiy "Haqq yo'lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila, aylamak bo'lmas ado uning haqqin yuz ganj ila" degan bayti bilan ustozning mehnatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmasligini ifodalagan. A.Jomiy esa "Muallim aqlli, adolatli va o'zida yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak" degan. Bu qarashlar bugungi o'qituvchi etikasi, kasbiy odob va pedagogik etika kodeksi asosida ham o'z ifodasini topgan.

Jadid ma'rifatparvarlarining hissasi.

XX asr boshlarida yashab ijod qilgan Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy kabi ma'rifatparvarlar Sharq

mutafakkirlarining g'oyalarini amaliyotga tatbiq etdilar. Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiyani jamiyatning asosiy ustuni sifatida ko'rsatadi.

Uning “Tarbiya qiluvchilar tabib kabidur” degan iborasi, o'qituvchining har bir so'zi va harakati bolaning ruhiyatiga bevosita ta'sir qilishini bildiradi.

Is'hoqxon Ibrat esa “Madaniyatni topadurg'on asbob ilm, ilm bo'lsa maktab birla bo'lur” deya ta'limning ijtimoiy hayotdagi o'rnini belgilab bergan. Bugungi kunda bu fikr “ilm – taraqqiyot asosi” shiori bilan uyg'unlashadi.

Zamonaviy ta'limga ta'siri.

Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari bugungi O'zbekiston ta'lim tizimida o'z ifodasini topgan. “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi”, “Yangi O'zbekiston strategiyasi”da o'qituvchi shaxsini ma'naviy yetuk, kasbiy jihatdan barkamol kadr sifatida shakllantirish g'oyalari aynan shu allomalarning merosiga tayanadi.

Bugungi o'qituvchi o'z ishida Forobiyning ilmiylik tamoyilini, Beruniyning tahliliy yondashuvini, Navoiyning insonparvarlik ruhini va Avloniyning axloqiylik tamoyillarini uyg'unlashtirsa, u haqiqiy zamonaviy pedagog bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki sharq mutafakkirlarining kasbiy-pedagogik faoliyatga oid qarashlari — bu faqat tarixiy meros emas, balki zamonaviy ta'lim tizimining ma'naviy poydevoridir. Ular insonni barkamol etish, jamiyatni ma'rifatli qilish va ustoz shaxsini yuksaltirish g'oyalarini ilgari surganlar.

Bugun har bir pedagog shu allomalar merosini o'rganar ekan, o'z kasbining sharafini, o'z zimmasidagi mas'uliyatni yanada chuqur his etadi. Shu ma'noda, Sharq mutafakkirlarining g'oyalari yosh avlodni komil inson etib tarbiyalash yo'lida biz uchun yo'lchi yulduz bo'lib qolaveradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Forobiy A.N. “Fozil odamlar shahri”. Toshkent, 1993.
2. Beruniy A.R. “Tanlangan asarlar”. Toshkent, 1968.
3. Ibn Sino A.A. “Tadbiri manozil”, “Tib qonunlari”.
4. Avloniy A. “Turkiy guliston yoxud axloq”. Toshkent, 2019.

5. Navoiy A. “Majolis un-nafois”. Toshkent, 1991.
6. Jomiy A. “Xiradnomai Iskandariy”. Toshkent, 1971.
7. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”, Toshkent, 2021.
8. www.pedagog.uz, www.tdpu.uz

